

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALALAR PSIXOLOGIYASINI O'RGANISH MASALALARI

Mirzayeva Dilfuzaxon Inomjonovna

Andijon viloyati Bo'ston tumani 3-sonli umumta'lim maktabi amaliyotchi psixolog

Annotatsiya: Hozirgi jamiyatimizning asosiy bo'g'inini yoshlar tashkil etadi. Yoshlarning ilmiy salohiyatining qanchalik darajada bo'lishida katta ro'l o'ynaydigan jarayonlardan biri bu kichik maktab yosh davri hisoblanadi. Sababi bolalarining psixikasidagi asosiy jarayonlar shu davga to'g'ri keladi.

Kalit so'zlar: Kichik maktab yoshi, bolalar psixologiyasi, intellekt, krizis, ta'lim.

KIRISH

Odatda psixologik adabiyotlarda keltirilishicha kichik maktab yosh davri 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, lekin bu yosh davrga ajratish prinsipi qat'iy va mutlaq degan fikr emas, albatta. Chunki, xalq ta'limi tizimida yuz beradigan ayrim o'zgarishlar bunga u yoki bu tarzda o'z ta'sirini o'tkazadi. Jumladan, bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanayotgan paytdan boshlab tayyorgarlik ko'ra boradi, buning uchun u, dastavval ta'lim tarbiya tomonidan o'quvchi shaxsi oldiga qo'yiladigan turli mazmundagi talablar bilan tanishadi, undan tashqari u fan asoslarini egallash uchun ham biologic jismoniy, ham psixologik jihatdan qariyb yetilgan, jismoniy va aqliy mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kichik maktab yoshi bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Bularga:

- Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik va rivojlanishning ijtimoiy shartsharoitlari,
- Maktabga moslashish,
- Kichik maktab yoshida yetakchi faoliyat,
- Kichik maktab yoshida asosiy psixologik yangilik,

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bolaning mакtabda o'qishga tayyorligi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1-Shaxsiy tayyorgarlik. Motivatsion sohaning rivojlanganlik darjasи. Bilishga qiziqishning mavjudligi. Ijtimoiy munosabatlar tizimida O' zining maxsus o'mni bolishiga intilish, muhim baholanadigan faoliyatni bajarish ya'ni o'quvchi bo'lish.

11-Intellektual tayyorgarlik. Tevarak-atrofda mo'ljal ola bilish, bilimlar zaxirasining mavjudligi. Idrok va ko'rgazmali-obrazl tafakkurning ma'lum darajada rivojlanganligi. Umumlashtirish darjasи narsa va hodisalarni farqlash va umumlashtira olish ko'nikmasi. Nutqining ma'lum darajada rivojlanganligi; ko'pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar mакtab beradigan ta'llimga asos bo'lishi mumkin, lekin so'z boyligi, ma'lum xattiharakatlarni bajara olish layoqati bolaning mакtabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi

Birinchi bor mакtabga kelgan bola hali o'zini to'liq anglashi va o'z hattiharakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga me'yorlar qo'yishi, ularning hattiharakatlarini baholashi, o'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi talablar va shartlarni qabul qiladilar, shuningdek, ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar.

Bir qator ijtimoiy va pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, faqat har beshinchi birinchi sinf o'quvchisi jamoaga muammosiz qo'shiladi va deyarli darhol standart o'quv jarayoniga o'rganadi. Bo'lajak birinchi sinf o'quvchilarining qariyb yarmi, hatto oddiy bolalar bog'chalariga boradigan va yaxshi psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan, shuningdek, mакtabga tayyorgarlik bo'yicha testlardan muvaffaqiyatli o'tgan, oxir-oqibat moslashish bilan bog'liq muammolarga duch keladi, asosan intizom va o'quv faoliyati bilan bog'liq. Boshqalar yo'qligida bu muammolarning sababi salbiy omillar(oilada salbiy ijtimoiy vaziyat, sog'liq muammolarining mavjudligi va boshqalar) - jamiyatning tavsiflangan ijtimoiy birligining o'yin komponentiga e'tibor qaratish. Bola, to'g'ri va

oldindan tayyorlanmagan, o'zi uchun ham aqliy, ham ijtimoiy jihatdan yangi sharoitlarga yaxshi moslasha olmaydi.

Yuqoridagi barcha muammolarni faqat har tomonlama hal qilish mumkin, bu bolaga ta'lif va bilish jarayonida diqqatni to'g'ri joylashtirishga yordam beradi, uni ta'limdagi har qanday muvaffaqiyatga rag'batlantiradi, maktabdagi xattiharakatlarning aniq intizomiy asosini shakllantiradi.

Kichik muktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning muktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va xulq-atvoridagi o'rni nihoyatda katta. Bu davrda axloqiy hatti-harakat qoidalari o'zlashtiriladi, shaxsning ijtimoiy yo'nalishi tarkib topa boshlaydi. Ushbu sifatlarning shakllanishi bolada bilish jarayonlarining faolligi bilan bog'liqdir.

Idrok. Kichik muktab yoshidagi bolalar idrokining o'tkirligi sofligi bilan farq qiladilar. O'quvchilarning idroki o'ziga xos bilimga tomoshabin tariqasida berilganlik bilan farq qiladi.

Diqqat. Kichik muktab yoshidagi o'quvchilar diqqatining asosiy hususiyatlari ixtiyoriy zaifligidadir. Kichik muktab yoshida diqqatni iroda kuchi bilan moslash va uni boshqarish imkoniyati cheklangan bo'ladi.

Xotira. Kichik muktab yoshidagi o'quvchilarda xotira ta'limining ta'siri bilan ikki yo'nalishda rivojlanadi. So'z mantiq xotirasining va mahnosiga tushunib esda olib qolishning rolg'i va uning salmog'i kuchayadi, tartibga solish imkoniyatlariga bo'ladi. Birinchi signal sistemasining faoliyatining nisbatan ustunligi tufayli kichik muktab yoshidagi o'quvchilarda so'z mantiq xotirasi deb atalgan xotiraga qaraganda ko'rgazmali-obrazli xotira ko'proq rivojlangan bo'ladi.

Xayol. Xayol muhim psixik bilish jarayonlaridan biridir. Xayolning faoliyatsiz o'qituvchi gapi rayotgan va darslarda yozilgan narsalarning tasavvur qilishni hamda ko'rgazmali obrazlar bilan ishlashni bilmay turib, hech qanday o'quv predmetni chinakkam o'zlashtirishi mumkin emas. Kichik muktab yoshidagi o'quvchining xayoli uning o'quv faoliyatining ta'siri va talablari bilan tarkib topadi. Shuning bilan bir qatorda bevosita ta'surotlar (muzey, vistavkalarning borib ko'rish, kinokartinalarni ko'rish,

ekskursiyalarga borish, maktab yer uchastkasida ishlash va boshqalar) ham xayolni rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda kichik maktab yoshida bolada ko'pgina o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'quv faoliyati ko'nikmalarining shakllanishi, o'z-o'zini boshqarish, dunyon bilish munosabati shakllanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Bola o'z xulq-atvorini boshqara boshlaydi. Uyda va jamoat joylarida o'zini qanday tutish kerakligi haqida xulq-atvor normalarini aniq tushunadi, kattalar va tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatda o'z emotsiyalarini boshqara oladi. Xulq-atvor normalari o'zining ichki talabiga aylanadi, unda uyatchanlik hislari paydo bo'ladi. Lekin shunga qaramay kichik maktab yoshidagi bola uchun axloqiy jihatdan barqaror emaslik, munosabatlar va kechinmalarning doimiy emasligi xosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 -Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Z.T.NISHANOVA, N.G.KAMILOVA, D.U.ABDULLAYEVA, M.X.XOLNAZAROVA «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT - 2018

2- Ontogenet psixologiyasi E,G'oziyev, Toshkent "NIF MSH" 2020

3 -Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o ' qituvchisining psixologiyasi.<<Pedagogika va psixologiya» (ilmiy ommabop seriya).- T. , Nizomiy nomidagi TDPU, 1999/1.

4.) KYMaeBa, r. Y. (2022). OHJIABHñ MYHOCABATJTAPAAFH BEFOHAJTAIIYBHHHF H)KTHMOHñ HCHXOJIOFHK OMHJTJTAPH. Science and innovation, l(B3), 428-431.

5. O'ralovna, J. G. (2022). Social Psychological Problems of Alienation. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 204-206.